STUDENT ECO CLUB

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti

1. Umumiy ma’lumot

Nomi: Student Eco Club
Tashkil etilgan yil: 2025
Muassasa: Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti (O‘ZMPU)
Manzil: Toshkent, O‘zbekiston
Elektron pochta: studentecoclub@npuu.uz
Veb-sayt: npuu.uz

2. Missiya

Student Eco Club O‘ZMPU talabalari o‘rtasida ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini shakllantirish, amaliy tashabbuslar orqali universitetning yashil kampusga aylanishiga hissa qo‘shish maqsadida faoliyat yuritadi.

3. Maqsad va vazifalar

Asosiy maqsad: Talabalarni barqaror rivojlanish, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida faol ishtirokchilarga aylantirish.

- Ekologik bilim va xabardorlikni oshirish
- Kampusdagi barqarorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash
- BMT Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) bo‘yicha tadbirlar o‘tkazish
- Mahalliy va xalqaro ekologik tashkilotlar bilan hamkorlik o'rnatish
- Yosh ekolog-tadqiqotchilarni rag‘batlantirish

4. Faoliyat yo‘nalishlari

4.1. Ekologik tadbirlar

- Daraxt va o‘simlik ekish aksiyalari
- Kampus va atrofdagi hududlarni tozalash
- Chiqindilarni qayta ishlash madaniyatini joriy etish
- Suv va energiya tejash bo'yicha monitoring

4.2. Ta’lim va targ‘ibot

- Barqaror rivojlanish bo‘yicha ma’ruzalar va seminarlar
- Ekologik kinofilm va ko‘rgazmalar
- Ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ibot kampaniyalari
- Maktab o‘quvchilari bilan ekologik tarbiya dasturlari

4.3. Ilmiy-tadqiqot

- Kampus ekologik holati bo‘yicha tadqiqotlar
- Barqarorlik bo‘yicha loyihalar ishlab chiqish
- Ilmiy maqolalar va hisobotlar tayyorlash

4.4. Hamkorlik

- Xalqaro ekologik tashkilotlar bilan aloqa
- Boshqa universitetlar eko-klublari bilan tajriba almashish
- Davlat ekologiya idoralari bilan birgalikdagi tadbirlar

5. A’zolik

Klubga O‘ZMPU ning barcha talabalari, magistrantlari va doktorantlari a’zo bo‘lishi mumkin. A’zolik ixtiyoriy va bepul.

A’zo bo‘lish tartibi:

- studentecoclub@npuu.uz manziliga ariza yuborish
- Talabalar bilan ishlash bo‘limiga murojaat qilish
- Har semestrda o‘tkaziladigan kirish yig‘ilishida qatnashish

A’zolar huquqlari:

- Barcha tadbirlarda ishtirok etish
- Loyihalar ishlab chiqish va taklif kiritish
- Klub boshqaruvini saylash va saylanish
- Faollik uchun sertifikat va tavsifnoma olish

6. Boshqaruv tuzilmasi

Rais - umumiy rahbarlik va tashqi aloqalar
Rais o‘rinbosari- ichki faoliyatni muvofiqlashtirish
Kotib - hujjatchilik va axborot
Moliyachi - byudjet va resurslar
Yo‘nalish masullari - har bir faoliyat bo‘yicha

7. Murojaat

Elektron pochta: studentecoclub@npuu.uz
Veb-sayt: npuu.uz
Manzil: Toshkent, O‘zbekiston, O‘ZMPU kampusi